

HOKIM VA YOSHLAR UCHRASHUVI



Bugun 9 yanvar kuni Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdievning “Hokim va yoshlar” loyihasi doirasida yoshlar bilan uchrashuvi o`tkazildi. Hokim yoshlar bilan uchrashib, ularning taklif va tashabbuslari bilan tanishdi.

Uchrashuvda I.Xudoyberdiev yoshlarga shahrimizda olib borilayotgan keng ko`lamli o`zgarishlar, yangilanishlar, kelgusidagi istiqbolli rejalar haqida batafsil ma`lumot berdi. Ayni vaqtda barcha sohalarda malakali kadrlarga ehtiyoj yuqoriligini, belgilangan loyihalarni amalga oshirishda yetuk kadrlarning roli katta ekanligini takidlab.

Ochiq va samimiy ruhda o`tkan uchrashuvda 17 maktabning yosh ijodkor o`quvchilari Muxlisa Abdug`anieva va Feruza Xasanovalar o`z ijod namunalarini kitob qilib chiqarishda amaliy yordam so`rab qilgan murojaati joyida ijobiy yechim topdi. Hokim tomonidan har ikki o`quvchining kitoblari bir hafta muddatda 500 nusxadan chiqarilib va 17 maktabda taqdimotini o`tkazish bo`yicha mutassadilarga topshiriq berildi va taqdimotda shaxsan o`zi ishtirok etishini ma`lum qildi.

Uchrashuv so`ngida I.Xudoyberdiev shaharning barcha darajadagi rahbarlari yoshlarning g`oya va tashabbuslarini, yangi loyihalarini har taraflama qo`llab-quvvatlab, muammolarini hal etishga, ularning ta`lim olishi, kasb-hunar egallashi, porloq istiqboli uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga tayyor ekanliklarini ta`kidladi. Yoshlarni a`lo baholarga o`qish va izlanishga, o`z salohiyatini yurtimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi yo`lida sarflashga undadi.













O'ZBEKISTON
YOSHLAR
ITTIFOQI



O'ZBEKISTON
YOSHLAR
ITTIFOQI

O'ZBEKISTON
YOSHLAR
ITTIFOQI



O'ZBEKISTON
YOSHLAR
ITTIFOQI



40 KIM YOSHLAR
UCRUVI

O'ZBEKISTON
YOSHLAR
ITTIFOQI













TOBILARING KITUB O'QIYISH VA
QIZIQILARINI O'ZLARIGA
ULASHI KUTUB XIZMATI BILAN
ARZIYLIGI KUTUBXONALAR
TARAFIDAN O'ZLARIGA
ALTIYUZLIK O'ZLARIGA

